# O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI LEKSIK SINONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.

**Malikova Rayxon Sobirjon qizi**

malikovarayhon@gmail.com

Qo‘qon davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada dastlab o‘zbek va turk tillaridagi sinonimiya hodisasi, sinonimlar haqida nazariy ma’lumot beriladi. Shuningdek, har ikki tildagi ayrim leksik sinonimlarning uslubiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ularning qo‘llanilishi, o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** sinonim, uslubiy sinonim, uslub, stilistik belgi, salbiy bo‘yoq, ijobiy bo‘yoq, neytrallik.

**Аннотация.** В данной статье сначала представлена теоретическая информация о феномене синонимии и синонимов в узбекском и турецком языках. Также приводится сравнительный анализ некоторых стилистических синонимов в обоих языках. Уделяется внимание их использованию, сходствам и различиям. **Ключевые слова:** синоним, стилистический синоним, стиль, стилистический знак, отрицательная коннотация, положительная коннотация, нейтральность.

**Annotation.** This article first provides theoretical information about the phenomenon of synonymy and synonyms in Uzbek and Turkish. It also provides a comparative analysis of some stylistic synonyms in both languages. Attention is paid to their use, similarities and differences. **Key words**: synonym, stylistic synonym, style, stylistic sign, negative connotation, positive connotation, neutrality.

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakultetida 30-martdan 25-aprelgacha 4 hafta davomida amaliyot o‘tadim. Ushbu ilmiy-tadqiqot amaliyotida magistrlik dissertatsiya mavzuyimga taalluqli ilmiy, nazariy adabiyotlar bilan tanishdim. Ilmiy

ishimning I bobini yozib tugalladim. Quyidagi ilmiy maqolani ilmiy-tadqiqot amaliyotida orttirgan bilim va tajribalarim asosida yozdim. Ma'lum bir so'zning semantik strukturasi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish va aniq tavsiflash uchun leksik ma'nosini denotativ, konnotativ, funksional-stilistik (stilistik belgilanganlik, o'ziga xos qo'llanishi, uslubiy ma'no noziklari va shu kabilar) va boshqa aspektlarda ko'rib chiqish, tahlil qilish kerak.[1,105].

Leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari, ya'ni ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, subyektiv baho, qo'llanish doirasi har xil bo'ladi. Ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlar ma'no sinonimlari, uslubiy sinonimlar va nutqiy sinonimlarga bo'linadi. Maqolada bevosita uslubiy sinonimlarga to'xtalamiz. O'zbek va turk tillaridagi bir nechta misollar orqali sinonimlarning uslubiy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilamiz. Uslubiy sinonimlar (Stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no - "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yanada ortib boradi.[2,167].

*Ayol* so'zining sinonimlari o'zbek tilida quyidagicha izohlanadi.

*Xotin, rafiqa, yostiqdosh, ayol, oila, ahliya, zavja.* Erning nikohidagi ayol, uning umr yo'ldoshi. *Yostiqdosh* umr yo'ldoshi bo'lgan er ma'nosida ham qo'llaniladi. *Xotin* ko'proq so'zlashuv uslubida foydalaniladi. Ayolga nisbatan qo'polroq ohangga ega. *Rafiqa* ko'proq kitobiy uslubga xos. *Ayol* – uslubiy betaraf, ya'ni neytral. Barcha uslublarda ishlatiladi. *Oila* bu ma'noda oddiy so'zlashuvga xos, shevalarda ishlatiladi. *Ahliya* – arabcha. Kitobiy uslubga xos. *Zavja* – eskirgan so'z.

*Shu payt uzun ko'ylagining etagi yerga tegay deb turgan xotin uyga kirdi.*

*Ayol sekin-sekin nari ketayotgan edi, Oqsoqol qulluq qildi.*

*Azamatning to'yiga olti oy o'tganiga qaramay, haliyam oilasini Toshkentga olib kelmadi.*

*U Saidga nafaqat rafiqa, ayni damda eng yaqin va eng ishonchli maslahatgo'y, xavf-xatardan asraydigan "tumor" edi.*

*Yigitman degan birovga sovchi qo'yarkan, o'ziga yostiqdosh deb, umrini umriga bog 'lar ekan, aqlini yig'sin.*

Xuddi o'zbek tili singari turk tilida ham sinonimik qatordagi so'zlar uslubiy jihatdan farqlanadi. Ya'ni, sinonimlar stilistik belgiga ega bo'ladi. Sinonim so'zlar qatori uslub nuqtayi nazardan o'ziga xoslik kasb etadi. Misol sifatida "*ayol*" sememasini tashkil etuvchi *kadın, bayan, hanım, karı, avra, eş* sinonimlar qatorini olaylik. Uslubga ko'ra *kadın, hanım* so'zlari neytrallik xususiyatini aks ettiradi. Ammo *bayan* so'zida rasmiylik to'laligicha namoyon bo'ladi, ya'ni rasmiy uslubda ishlatiladi; *karı, avrat* so'zlarida so'zlashuv uslubiga xoslik yuzaga keladi.

*Iki hanım arkadaş birbirlerine uzun süredir görmüyorlardı.*

*Ikki dugona bir-birlari bilan uzoq vaqtdan buyon ko'rishmagan edi.*

Bu o'rinda *hanım* "*ayol*" tushunchasini neytral tarzda ifodalaydi, bu so'z o'rnida boshqa variantini qo'llab bo'lmaydi.

*Ergene (Bekara) karı boşaması kolay.*

*Bo'ydoqqa xotin qo'yish oson.*

"Turk tilining izohli lug'ati"da *karı* so'zining uslubiy xususiyatlari haqida shunday yozilgan: 1. (Egalik qo'shimchasi bilan) bir erkakning uylangan xotini, turmush o'rtog'i, rafiqasi. 2. Qo'pol ma'noda: *xotin.* So'zlashuvda egalik qo'shimchasini olib, karım shaklida qo'llanganda hurmat ma'nosini kuchsiz darajada ifoda etadi. Bu shaklda so'zlovchining to'poriligi, qo'polligi kuzatiladi.[3,66].

Misollarda qo'llanishiga e'tibor qarating: *Anne, üç gün için bir iş seyahatine çıktım. Dün gece karıma döneceğimi telegrafla bildirdim.*

*Oyi, uch kunga ish sayohatiga chiqdim. Kecha kechasi xotinimga telefon orqali xabar berdim.*

*Toplantıda konuşan bayan, projenin detaylarını açık bir şekilde anlattı.*

*Yig'ilishda so'zga chiqqan ayol loyiha tafsilotlarini aniq tushuntirib berdi.*

*Odam, odamzod, kishi, inson, kimsa, kas, bashar.* Tafakkur qilish, so‘zlash, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu sababli boshqa maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot. *Inson* so‘zidan ijobiy munosabat anglashiladi. *Odam, odamzod, inson* so‘zlarida umumlashtirish mavjud. Ya’ni barcha uslublarda foydalaniladi. *Kimsa, kas* so‘zlari ma’nosida bir qadar salbiy munosabat ta’kidi ham anglashiladi. *Bashar*, asosan, badiiy uslubga xos.

*Inson bolasiga bundan ortiq jazo bormi?*

*Bir odamda diyonat bo'lsa shunchalik bo'lar-da, o'rtoq!*

*Odamzodning qonida g'alati adolatsizliklar bo'ladi.*

*Chamasi, pakana kishi hech nimaga tushunmasa ham, iljaydi.*

*Men buyuk yurt o‘g‘lidurman, Men bashar farzandiman…*

*İnsan, kişi, adam, kimse, şahıs. İnsan* neytral so‘z. Deyarli barcha uslubda ishlatiladi. *Kişi* ko‘proq rasmiy uslubga xos. Boshqa uslublarda ham foydalaniladi. *Adam* so‘zlashuv uslubiga, *şahıs* rasmiy uslubga xos. *Kimse* noaniq shaxsni bildiradi, salbiy bo‘yoq kuchli.

*İnsan sosyal bir varlıktır.* *Insonlar ijtimoiy mavjudotlardir.*

*Bu sefer, hâlâ beyaz atı üzerinde ilerlediğini hissettiğim o adamı düşündüm de ürperdim*

*Bu safar, hali ham oq otida ketayotgandek tuyulgan o'sha odam haqida o'ylaganimda, titrab ketdim.*

*Ama nakşettiğim harikaları takdir edecek kaç kişi var İstanbul'da?*

*Lekin men yaratgan mo'jizalarni Istanbulda qancha kishi qadrlaydi?*

*Ama kitabımı bitirebilecek Kara'dan başka kimsem de yoktu.*

*Lekin kitobimni tugata oladigan Karadan boshqa hech kim yo'q edi.*

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek va turk tillaridagi leksik sinonimlarning stilistik xususiyatlarida ma’lum bir yaqinlik hamda farqlar mavjud. Har ikki tildagi sinonimik qatordagi so‘zlarda neytral, rasmiy va emotsional qatlam bor. O‘zbek tilida sinonimlar badiiy va obrazliroq, turk tilida esa aniq va funksiyaliroq. Turk tilida uslubiy farq keskinroq, o‘zbek tilida esa yumshoq va asosan, kontekstga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Daniyarov B. O‘zbek tili leksik sinonimlarining lisoniy va nutqiy munosabati, leksikografik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Sano-standart, 2019.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
3. Imamova X. Turk tili leksikologiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974.
5. Mahmudov N. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023.
6. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
7. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2013.
8. Aksan D. Her Yönüyle Dil. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1990.